

BUXORO AMIRLIGINING TASHKIL TOPISHI VA XVIII ASRDA SIYOSIY HAYOT

Yursinboyev Jahongir Mehrojdin o'g'li

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika insituti 3-bosqich talabasi

Annontatsiya: Buxoro taxtiga mang'itlar sulolasining kelishi, O'rta Osiyo siyosiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar. Xalqning hayotidagi o'zgarishlar.

Kalit so'zlar: Mangitlar, ashtarxoniylar, Muhammad Hakimbiy, Muhammad Rahimbiy, amir, xon, chingiziylar, Buxoro

Buxoro – Sharqning mashhur qadimgi shaharlaridan biri. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro davlatchiligiga miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalarida asos solingan. Uning nomi ilk o'rta asr Xitoy manbalarida turlicha (An, Ansi, Ango, Buxo, Buku, Buxe, Buxuaer, Buxala, Buxoalo, Fuxu, Puxuala va boshqalar) atalgan. Bu atamalardan avvalgi uchasi Buxoroning xitoycha nomlari bo'lib, qolgani "Buxoro" so'zining xitoy tilidagi talaffuzidir. O'rta asr arab manbalarida esa Buxoro Numijkat, Navmichkat, Bumichkat (Yangi qo'rg'on), Al-Madina as-sufriyya (Mis shahar), Fohira (Fahrli shahar) kabi nomlar bilan tilga olingan. Buxoro atamasi sanskritcha "vixora" so'zining turk-mo'g'ulcha shakli – "buxor" (ibodatxona) dan kelib chiqqan deb taxmin qilingan. Keyingi tadqiqotlarda bu atama so'g'diycha "bug'" yoki "bax" (tangri) hamda "oro" (jamol) so'zlaridan iborat bo'lib, "tangri jamoli" degan ma'noni anglatadi, degan fikrlar hozirgi kunda ilgari surilmoqda. Haqiqatdan ham Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro va uning atrofida joylashgan yerlar qadimda nihoyatda xushmanzara – hayvonot va o'simlik dunyosi betakror, ko'l va oqar suvlarga boy bo'lib, tarixchi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridagi noyob va qimmatbaho ma'lumotlar buni tasdiq etadi.

Buxoro amirligi — (12.12.1756-02.09.1920) o'zbek sulolasi ashtarxoniylar o'rniga kelgan o'zbek mang'itlar sulolasi vakillari o'zlarini amir deb atashgan. Shunga ko'ra, davlat Buxoro Amirligi deb atala boshlangan. 1920-yil [Buxoro bosqini](#) natijasida tugatilgan. [1758-yilda](#) Rahimbiy vafotidan so'ng mang'itlar amirlik taxtiga uning amakisi Miyonko'l hokimi Doniyolbiy (1758—1785-yillar) nomzodini surishadi. Lekin u qat'iy markaziy hokimiyatni saqlab qololmadi. Mang'itlarning tarafdorlari va g'animlari o'rtasidagi o'zaro janjallar, joylardagi hokimlarning mustaqillikka bo'lgan intilishlari o'n yillarga cho'zilib ketdi. [1784-yili](#) Doniyorbiyning bo'shligidan norozi bo'lgan [Buxoro](#) ahli qo'zg'olon ko'tardi va amir hokimiyatni o'g'li Shohmurodga ([1785-1800](#)-yillar) topshirdi. Muhammad Shohmurod (Shohmurod, Shohmurodbiy, Amir Shohmurod, Amir Muhammad Shohmurod, Amiri Ma'sum) ([1741-yil](#), [Buxoro](#), [Buxoro xonligi](#) — [1800-yil 30-noyabr](#), Buxoro, [Buxoro amirligi](#)) — [Buxoro amirligi](#) hukmdori (1785—1800). [Mang'itlar](#) o'zbek sulolasining birinchi hukmdorlaridan biri va ushbu sulolaning birinchi [amiri](#). Davlat arbobi va sarkarda. [Buxoro xonligida](#) qo'shbegi lavozimida bo'lgan va turli viloyatlarda hokimlik qilgan.

Mang'it namoyondalari orasida Shohmurod ham shaxs, ham arbob sifatida alohida o'rin tutgan. Mang'itlar o'zbek sulolasi vakillari orasida eng nufuzli o'rinni egallagan. Amir Shohmurod taxtga chiqib 2 masalani hal etadi: [Ashtarxoniylar](#) o'zbek sulolasining umri tugab, hokimiyat yangi o'zbek sulolasi — Mang'itlar qo'liga o'tganligini rasmiylashtiradi; Buxoro davlatini birlashtirish va markazlashtirish uchun kurashni davom ettiradi va otasi [Doniyolbiy otaliq](#) davrida joriy etilgan soliqlarni bekor qildiradi. Shohmurod yangiliklarni Arkda saroy ahli guvohligida ikkita poraxo'r yirik amaldor — Davlat qushbegi va Nizomiddin qozikalonni qatl etishdan boshladi. Shundan so'ng Shohmurod [Buxoro](#) ahliga ularni bir necha soliqdan ozod etuvchi imtiyozli hujjatni tantanali tarzda topshirdi. Hujjatning matni tosh lavhada kesilgan bo'lib, u katta jome' masjidining ayvoniga o'rnatildi. Shohmurod „jo'l“ („jul“) deb nomlangan va urush holatida qo'shin saqlash maqsadida foydalaniladigan yangi soliq turini joriy qildi. Hokimiyatni o'z qo'lida jamlab olgach, u xonlik unvonidan voz kechdi va amirlik darajasida qoldi. Taxtga esa Shohmurod [Chingizxon](#) avlodlaridan bo'lgan Donishmandchini, keyinroq esa Abulg'ozini ko'tardi, lekin ular amalda hokimiyatga ega emasdilar. [1785-yili](#) Shohmurod pul islohotini o'tkazdi hamda 0,7 misqollik (3,36 g) to'la qimmatli kumush tangalar va bir

xil shakldagi oltin tangalarni zarb etishni yo'lga qo'ydi. U sud mahkamasiga ham shaxsan rahbarlik qildi. Shohmurod Buxoro amirligi tarkibiga [Amudaryoning](#) chap sohilidagi hududlarni, jumladan, [Balx](#) va Marvni qaytardi. 1786-yili u Karmanada xalq qo'zg'olonini bosdirdi, keyin [Shahrisabz](#) va Xo'jandga muvaffaqiyatli yurishlarni amalga oshirdi. Shohmurod afg'on hukmdori Temurshohdan ustun kelib, asosan [o'zbeklar](#) va [tojiklar](#) yashaydigan janubiy [Turkistonni](#) o'z qaramog'ida saqlab qolishga erishdi. Amir Haydar (1800—1826-yillar.) otasidan so'ng taxtga o'tirgan vaqtda butun [Mavorounnahr](#) uning hukmiga bo'ysinar edi. Haydarning taxtga ko'tarilishi ommaviy qo'zg'olonlar va qatllar bilan to'g'ri keldi. 1800-yili Marv turkmanlari bosh ko'tarishdi. Ichki janjallarga ko'p o'tmasdan [Qo'qon](#) bilan [O'ratepa](#) uchun urush qo'shildi. Haydar ushbu shaharni tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Amir Haydar davrida siyosiy tizim yakka hokimiyatchilik tomon intilayotgan markazlashgan monarxiyadan tashkil topgan edi. Amirga 4 ming kishigacha yetadigan byurokratik mahkama xizmat qilardi. Armiyaning miqdori oshdi. Faqat [Buxoroning](#) o'zida 12 ming harbiydan iborat qo'shin turardi. Ahmad Donishning yozib qoldirishicha, amir [Haydar](#) boshqaruv vaqtiga „har 3-6 oyda yuzaga keladigan to'xtovsiz feodal urushlar davri“ deya baho berish mumkin. Amir Haydarning vorisi Amir Nasrulloxon (1827-1860) amirlik yerlarini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. U o'z akalari (Husayn, Umar)ni o'ldirib, Buxoro taxtini egalladi. Amir Nasrullo o'zbek milliy davlatchilik tarixida eng shafqatsiz va qonxo'r hukmdor sifatida tarixda qoldi. Shu bilan birga u davlat hokimiyatini birmuncha mustahkamlagan, harbiy sohada ancha samarali islohotlar o'tkazib, o'z qo'shinining jangovar holatini oshirgan, mamlakatning hududiy yaxlitligini birmuncha tiklagan hukmdor edi. O'z dushmanlarida qo'rquvni kuchaytirish, o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun Buxoroda har kuni ko'plab kishilarni qatl ettirib turganligi uchun uni „Qassob amir“ deb ham atashardi. Markaziy hokimiyatni tan olmaydigan bo'ysunmas mahalliy hukmdorlarga qarshi u qattiq kurash olib bordi. U taxtga da'vogar bo'lishi mumkin bo'lgan barcha shaxslarni qirib tashladi. Nasrulloxon 1839, 1841 va 1858 yillarda Qo'qon xonligiga bostirib kelib, aholini qirg'in qildi va boyliklarni taladi. 1842 va 1843 yillarda Buxoro bilan Xiva xonligi o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'ldi. Amir Haydar hamda Amir Nasrullo hukmronligi davrida O'rta Osiyo Rossiya va Angliyaning siyosiy iqtisodiy manfaatlariga to'qnash kelgan o'lkaga aylanib qoldi. Bu davrda Hindistonni egallagan va Afg'onistonda katta ta'sirga ega bo'lgan Angliya O'rta Osiyoning qudratli davlati – Buxoro amirligiga o'z vakillarini yubora boshlaydi. XIX asrning 30-40 yillarida amirlikda bir qancha ingliz razvedkasi xodimlari: Murkroft(1824), A.Borns(1831), Mayor Volf(1843) hamda Nasrulloxon tomonidan qatl etilgan (1838) polkovnik Stoddart va mayor Konnolilar bo'lishib, bu yerda Rossiyaga qarshi Buxoro-Xiva ittifoqini tashkil qilishga urinib ko'rdilar. Lekin bu urinish samarasiz yakunlanadi. Amir Nasrullo davrida chor Rossiyasi qo'shinlarining O'rta Osiyo chegaralariga yaqinlashishi davom ettirildi. Rossiya hukumati ham Buxoroga o'z ta'sirini o'tkazishga faol intildi. Istilochilik yurishlariga qadar Buxoroga 4ta yirik rus elchilik missiyasining tashrifi fikrimizning dalilidir. Buxoro amirligida bo'lgan rus diplomatlariga rus maxfiy xizmati tomonidan maxsus topshiriqlar berilgan bo'lib, ular mamlakatdagi siyosiy iqtisodiy vaziyat, shaharlar va mudofaa qo'rg'onlari, qo'shin tuzilishi, qurol-yarog'lar, aloqa yo'llariga oid kerakli ma'lumotlarni yig'ishlari shart bo'lgan. Bu ma'lumotlardan keyinchalik Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlarida keng foydalanib kelingan. Podsho Rossiyasi O'rta Osiyoni mol sotish bozori, xom ashyo manbai deb bilar edi. 1866 yil rus qo'shinlari Buxoro amirligi chegaralariga bostirib kirdi va Xo'jand (24 may), O'ratepa (2 oktabr), Jizzax (18 oktabr) shaharlarini ishg'ol qildi. Istilo etilgan yerlarni boshqarish uchun 1867 yil Turkiston general – gubernatorligi tashkil etildi. 1868 yil 2 may kuni general Kaufman boshchiligidagi rus qo'shinlari Samarqandni ishg'ol qildi. Iyun oyida Buxoro amiri Muzaffar qo'shinlariga Zirabuloq yaqinida so'nggi qat'iy zarba berildi. Amir general – gubernatorga murojaat qilib, sulh tuzishni so'radi. 1868 yilning 23 iyunida ikki o'rtada shartnoma imzolandi. Rus qo'shinlari bosib olgan yerlar podsho Rossiyasi ixtiyoriga o'tdi; Buxoro amiri mustaqil tashqi siyosat yurgizish huquqidan mahrum bo'ldi; amir rus podshosiga 500 ming so'm tovon to'ladi. 1873 yil 28 sentabrda mazkur shartnomaga qo'shimchalar [kiritilib](#), amirlikning Rossiyaga qaramligi yanada kuchaydi. Natijada amirlik yerlarining uchdan bir qismi podsho Rossiyasi ixtiyoriga o'tdi; Xo'jand, O'ratepa, Panjikent. Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridan tortib Zirabuloqqaqacha bo'lgan yerlar, Sharqiy Buxoroda esa Shug'on, Vohon, Ro'shon viloyatlari, ayniqsa Zarafshon daryosi yuqori havzasining qo'ldan ketishi amirlikdagi xalqlarni asosiy hayot manbai – suvdan mahrum etdi, bu hol Buxoro amirligini Rossiyaga iqtisodiy jihatdan qaramligini yanada oshirdi. Amir va uning amaldorlariga qarshi xalq harakatlari podsho Rossiyasi

qo'shinlari yordamida bostirilar edi. Amir Abdulahad rus podshosining general-ad'yutanti hisoblangan. Uning davrida rus ma'murlari amirlikda katta imtiyozlarga ega bo'lgan. Amirlik yerlaridan o'tgan temir yo'l bo'ylariga rus aholisi keltirilib joylashtirildi. Buxoro-Afg'oniston chegarasining muhofazasi bilan ham rus qo'shinlari shug'ullangan. Buxoro amirligining podsho Rossiyasiga tobeligi Amir Olimxon zamonida (1910-1920) yanada ortdi. Amirlikda yettita rus xususiy bankining sho'basi ish olib borardi. 1-jahon urushi boshlanishi bilan amirlik aholisining ahvoli yanada og'irlashdi. Xuddi shu davrga kelib jadidchilik harakati asosida yosh buxoroliklar partiyasi faoliyati kuchaydi. 1917 yil Fevral inqilobi munosabati bilan bu partiya amirlikni podsho Rossiyasi buyrug'idan qutqazish, ba'zi islohotlar o'tkazish ishiga kirishdi. Yosh buxoroliklar rus bolsheviklari bilan hamkorlikda 1918 yil martida amir hukumatini ag'darishga urindilar. Ammo bu harakat muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1920 yil 2 sentabrda Buxoro bosqini natijasida amirlik tugatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://hozir.org>
2. [arxiv nusxasi](#), archived from [the original](#) on 2017-02-02, qaraldi: 2017-01-25
3. Olufsen, O. (Ole), The emir of Bokhara and his country; journeys and studies in Bokhara (with a chapter on my voyage on the Amu Darya to Khiva). Gyldendalske Boghhandel, Nordisk Forlag. Copenhagen, London: William Heinemann, 1911
4. "Buxoro amirligi" *O'zME. B-harfi* Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. <https://uz.wikipedia.org>